

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

2022 Vol. 1

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**2022 Vol. 1**

**[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Zaynobiddin Abdirashidov

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev.

### **Tahrir hay'ati**

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:**

Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editors in Chief:**

Zaynabiddin Abdirashidov

**Executive secretary:**

Ozoda Tajibaeva

### **Editorial board**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev.

### **Editorial Committee**

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## **MUNDARIJA**

### **Lingvistika**

#### **Samixon Ashirboyev**

Alisher Navoiy nasriy asarlari matnida gaplarni chegaralashga doir.....6

#### **Baxtiyor Abdushukurov**

Alisher Navoiy asarlaridagi etnonimlar.....19

#### **Zulxumor Xolmanova**

Omonimlar – tafakkur omili.....30

#### **Sanjar Mavlyanov**

O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar.....45

#### **Elyor Xonnazarov**

O'zbek tilshunosligida zamonni ifodalovchi grammatik shakllar tasnifi...55

### **Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik**

#### **Tanju Seyhan**

Ali Şir Nevâyî ve Kalem.....66

#### **Muhittin Gümüş**

Bâbürnâme'nin edebî tür açısından özellikleri.....78

### **Fan. Ta'lim. Metodika**

#### **Dilnavoz Yusupova**

"Xamsa" dostonlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish ("Farhod va Shirin" misolida).....89

### **San'at**

#### **Oqilxon Ibrohimov**

Nazm va navo xususida.....104

# CONTENT

## Linguistics

### **Samikhan Ashirboev**

Alisher Navoi's prose text is about limiting sentences.....6

### **Bakhtiyar Abdushukurov**

Ethnonyms in the works of Alisher Navoi.....19

### **Zulkhumor Kholmanova**

Homonyms – a factor of wisdom.....30

### **Sanjar Mavlyanov**

Semantic relations in the system of diplomatic terms of the  
Uzbek language.....45

### **Elyor Khonnazarov**

Classification of Grammatical Tense in Uzbek Linguistics.....55

## Literature. Translation studies

### **Tanju Seyhan**

Ali Şir Nevâyî and Pen .....66

### **Muhittin Kumush**

Features of Baburname as a literature genre.....78

## Science. Education. Methodology

### **Dilnavoz Yusupova**

Modern technologies and use of methods (in the example  
of "Farhod and Shirin").....89

## Art

### **Oqilkhon Ibrohimov**

About poetry and melody.....104

**SAN'AT  
ART****Nazm va navo xususida**Oqilxon Ibrohimov<sup>1</sup>**Abstrakt**

Azaldan o'zaro payvand kuy va she'riyat asrlar osha uzviylikda biri ikkinchisini "to'ldirib" va "bezab" keladi. Bunga xalq ijodiyoti qo'shiqlari, dostonlari, qadimgi madhiyalar, kitobxonlik an'analari, oshiqslarning zikr-u samo'lari yorqin misoldir. Garchi o'rta asrlarga kelib musiqa va she'riyat alohida-alohida mumtozlik darajasiga yuksalgan hamda mustaqil namoyon bo'lish xususiyatlari shakllangan bo'lsa-da, bu har ikki nafis san'at turining o'zaro "ehtiyojliligi" hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

Buni yaxshi anglagan turli davr musiqachilari yaqindan xabardor bo'lishga istagida she'riyatga, shoirlar esa musiqaga mudom intilganlar. Bu borada, ayniqsa, Sohobqiron Amir Temur va Temuriylar davri aksariyat shoir va mug'anniylar faoliyati samarali bo'lgan. Zero, ijodkorlarning yorqin iste'dodi, ustuvor g'oyalar mushtarakligi hamda ko'p jihatdan umumiy aruz vazni o'laroq musiqa san'ati bilan she'riyatning yuksak darajadagi uyg'unlashuvi in'ikos etgan mumtoz aytim namunalari yuzaga kelgan edi. O'n ikki maqom timsolida yorqin ifodasini topgan bu ijodiy an'analarni bizga qadar Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari, shuningdek suvora, ashula, katta ashula kabi mumtoz namunalarda o'z kuchini saqlab kelmoqda.

Ayni vaqtda kuy va so'z uyg'unligidagi aytim janrlari el-yurtga sadoqat, xalqimizga xos bag'rikenglik, samimiylik, insonparvarlik kabi olijanob fazilatlarni hissiy ta'sirchan tarannumi ila avlodlar qalbiga singdirishda katta ahamiyat kasb etishi ma'lum. Bu borada zamonamiz shoirlari, bastakorlari va ijrochilari muayyan natijalarga erishdilar. Istiqbolda esa ana shu ijobiy holatlarni yangi darajaga yuksaltirishdek mas'uliyatli, lekin sharaflil ijodiy vazifalarni amalga oshirish – davr talabi bo'lib turibdi.

**Kalit so'zlar:** *kuy, so'z, navo, she'r, musiqa, suvora, ashula, maqom, aruz, bastakor, shoir, falsafa.*

<sup>1</sup> Ibrohimov Oqilxon Akbarovich – san'atshunoslik fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San'atshunoslik instituti.

**E-pochta:** okilxoni@bk.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-3118-2041

**Iqtibos uchun:** Ibrohimov, O. A. 2022. "Nazm va navo xususida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 104–116.

### Kirish

Qadim-qadimdan kuy va soʻz misoli egizak, nainki, balki bir tanu, bir jon. Bunga yer yuzida ilk bor yuzaga kelgan ona allasi dalilki, zero, kurrayi zamindagi jamiki qoʻshiqlar ona allasidan boshlangan. Rivoyat qilinishicha, jannatdan quvilgan Odam Ato bilan Momo Havo bir-birlariga koʻngil qoʻyishib, egizak koʻrishibdi. Allohning bu marhamatidan boshi osmonga yetgan Odam Ato shikor (ov)ga ketibdi. Hammayoq osoyishta boʻlib, yer yuzidagi bu jimlikni faqatgina ikki chaqaloqning betoqat yigʻlagan ovozi buzar ekan. Momo Havo nima qilishini bilmay turganida uning yuragidan bir jozibali alla qoʻshigʻi kelibdi:

*Alla, bolam, baxtiyor,  
Har ishning ham vaqti bor.  
Otang ketgan shikorga,  
Alla, bolam, alla-yo.*

(“Asrlarga tengdosh qoʻshiqlar” kitobidan).

Binobarin, ibtidoda soʻz kuydan, kuy esa soʻzdan ayro boʻlmagan, zero, odamzod yer yuzida yashay boshlagan davrdan buyon goʻdaklarning ruhiy ozuqasi – allada ularning har ikkisi ona qalbida “qoʻsh” tugʻilgan edi. Aslida, soʻz va kuyning mutloq uygʻun va eng goʻzal namunasi Alloh Taoloning bashar ahli ruhlarini yaratib, ularga qilgan ilk Xitobi (samoʻsi)da namoyon boʻlgan ekan. Bu xususda taniqli muhaddis shayh Abu Bakr Buxoriy-Kalobodiy (vaf. 994-y.) shunday deydilar: “Samoʻ asli andinkim, Haqi Subhon ayt-mish **“A lastu bi-Rabbikum?”** (“Men sizlarning Rabbingiz emasmanmi?!”). Haqdin eshitilmish birinchi xitob ushbuturur. Va eng yoqimli samoʻ ulkim Xudodan eshitursen” [Buxoriy-Kalobodiy 1993, 13]. Xullas, shu voqeotdan boshlab “yoqimli savtlar (kuylar) Haq Taoloning oʻz bandalariga boʻlgan xitobiturur” [Boboxonov 1993, 46].

Demak, ayon boʻladiki, hikmatli sheʼr misralariga payvasta yoqimli xush navolar ayni vaqtda qalblarga huzurli hayajon solib, jonga quvvat bagʻishlovchi xitob hamdir. Shu boisdan boʻlsa kerak, asrlar davomida isteʼdodli ulugʻ ajdodlarimiz ijodida kuy va sheʼriyat oʻzaro ajralmas bir butunlikda yaratilib kelindi. Misol tariqasida ogʻzaki ijod mahsuli boʻlgan sermazmun xalq qoʻshiqlari, yalla va ashulalari, Hazrat Ahmad Yassaviy hikmatlari, kitobxonlik anʼanalari va yana koʻplab namunalarni xotiraga olish mumkin.

### Aruz va musiq

Oʻrta asrlarga kelib mumtoz (yozma) sheʼriyatning “mustaqil



yashash" (immanent) asoslari ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqilgan va endilikda bu soha nafis san'atlar qatorida alohida o'rin va mavqe'ga erishgan davrlarda ham she'riyat musiqadan butkul uzilmadi, balki uning (musiqa) muhim asosiy harakat omili bo'lgan ritm ifodaviy vastasini aruz tizimiga singdirib oldi.

Filolog olim U.To'ychiyevning yozishicha, Xalil ibn Ahmad<sup>1</sup> aruz nazariyasini yaratish jarayonida musiqa ilmi va unda qo'llangan atamalardan unumli foydalangan: "Poeziya o'lchov, vaznni ham muzikadan oldi. Chunki ritm vaznsiz, o'lchovsiz yuzaga kelmaydi... Aruzning zihof nazariyasida mavjud bo'lgan vatad, sabab, fosila terminlari ham muzikadan olingan... Asllar muzikada ham, aruzda ham sakkizta" [Тўйчиев 1985, 47].

Darhaqiqat, musiqada mumtoz hisoblangan usullar turkumi 8ta bo'lib, ular quyidagicha nomlanadi: 1. Xafiful-hazaj (2/4); 2. Hazaj (6/8); 3. Xafifur-ramal (3/4); 4. Ramal (3/2); 5. Xafifu saqilus-soniy (5/4); 6. Saqilus-soniy (5/2); 7. Xafifu saqilul-avval (4/4); 8. Saqilul-avval (4/2) [Назаров 1995, 63].

Xullas, uzun, cho'ziq va qisqa bo'g'inlar nisbatiga tayangan aruz vazni ruknlari va bahrlarining zamirida o'ziga xos ritmik tuzilmalar anglashiladi. Musiqadagi usulni eslatuvchi bunday tuzilmalar (formulalar) she'rdagi so'zlar bilan o'zaro bog'lanishi o'laroq o'ziga xos ritmli ohanglar yuzaga kela boshlaydi. Shu asnoda she'riyatning "ichki" xususiyatlarida o'ziga xos ohanglar kashf etilgan edi. Biroq, shunday bo'lishiga qaramay, she'riyat va musiqada birbirini to'ldiruvchi sifatlar mavjudligi bois she'riyat mudom musiqaga, musiqa esa o'z navbatida she'riyatga ehtiyojlidir.

Bu holatni har bir davrda yashab ijod etgan bastakor va shoir chuqur his etgan bo'lsa ajab emas. Inchunin, musiqada hol tili ila ifodalangan nozik his-tuyg'u va ulug'vor g'oyalar go'zal she'riy misralar bois muayyanlik kasb etib, tinglovchi idrokiga maqsadli xizmat qilish imkonini bersa, mumtoz she'rga mutanosib bo'lgan kuy-ohanglari misoli uning qo'sh qanoti yanglig' yuksak parvozi bilan birga el orasida samarali targ'ibu tashviqini ham ta'minlaydi. Buni teran anglagan iste'dod sohiblari musiqa va she'riyatni, ta'bir joiz bo'lsa, o'zaro "hamnafas" bildilar, shuningdek har ikki sohada ham ijod qilishga intilib, she'riyat namunalarini "kuylash uchun yo musiqa jo'rligida aytish uchun" yaratib keldilar.

Bu borada, ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davri benihoya e'tiborli bo'ldi. Zotan, nazmda qalam tebratgan

<sup>1</sup>Xalil ibn Ahmad (718-792), taxallusi – Basriy, "Al Aruz", "An-Nag'am" ("Kuylar", "Ohanglar") va boshqa ilmiy asarlarning muallifi.

davrning aksariyat hukmdor-u shoirlari musiqadan, musiqa ahli esa she'riyatdan yaxshi xabardor edi. Abdulqodir Marog'iy, Mirzo Ulug'bek, Mavlono Sohib Balxiy, Xoja Yusuf Burhon, Hofiz Basir, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Pahlavon Muhammad, Kamoliddin Binoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va yana ko'plab buyuk siymolar faoliyati bunga yaqqol misol bo'lishi mumkin.

Shuni ham qayd etmoq kerakki, bu davrga kelib mumtoz musiqa va she'riyat namunalarining o'zaro "tortishish", ijodiy uyg'unlashish jarayonlari yangi darajaga yuksalgan va bu hol, ayniqsa, maqomlar tizimida yaqqol namoyon bo'lgan edi. Zotan, mumtoz maqom san'ati ilk shakllanish davridan to keyingi rivoj bosqichiga qadar Sharq mumtoz she'riyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Albatta, buning bir qator sabablari bor.

Avvalo, bu har ikki nafis san'atni o'zaro mushtarak etgan g'oyaviy asos xususida gapirish joiz. Shundayki, maqomlarning ishq hikmati ila yo'g'rilgan sadolari mumtoz she'riyatda ustuvor yanglig' ma'nolar ummoniga hamohangdir. Har holda davrning mashhur O'n ikki maqom nomlari mumtoz adabiyotda va aksincha, mumtoz she'riyat namunalari maqom aytimlarida keng qo'llanib kelinganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Shams Tabriziy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab va boshqa aziz donishmandlarning ishq tarannum etilgan g'azallari har bir maqom aytimiga nazmiy asos bo'lishi mumkin bo'lgan.

### **Mumtoz she'rlarni maqom kuylariga vobasta etish an'anasi**

Mumtoz she'rlarni muayyan usullarga muvofiq tanlagan holda maqom kuylariga vobasta etish amaliyoti bastakorlik ijodiyotining bir ko'rinishini daraklaydi [Ражабов 2006, 32]. Voqean, bastakorlar asriy sinovlarda qadr topib kelayotgan kuylarga har zamon kesimida ijodiy ishlov-u, yangi jilolar bilan sayqal beruvchi, aytim janrlarida esa ularning xilqatiga mutanosib nazm bog'lovchi san'atkorlardir. Bu boradagi dastlabki kasbiy ko'nikmalar "ustoz-shogird" an'anaviy tahsilida hosil qilingan. Jumladan, maqom san'atini amaliy o'rganish istagida ustozga bog'langan har bir shogird muntazam ravishda forsiy va turkiyda bitilgan mumtoz she'rlarni aruz bahrlariga muvofiq o'qib yod olishi – talab darajasida bo'lgan.

Keyingi bosqichda esa kuy va g'azal mazmunida ifodalangan ma'naviy go'zalliklarni o'zaro uyg'unlashtirish vazifasi qo'yilarkan, shogird:

a) kuy tuzilmasida muhim o'rin tutgan har bir tovush-parda

qiymatini qalban his qilgan holda ovoz tarovatiga “ko‘chirishi”;

b) g‘azal mag‘zini avvalo teran anglab, so‘ngra undagi misralarni aruz bahri va unga monand usul kesimida alohida burro talaffuz etishi;

v) musiqadagi usul omili asosida kuy va so‘zni uzviy bog‘lashi, ya‘ni ijro jarayonida ohang va ibora birikmalarida kelgan ma‘no urg‘ularini o‘zaro to‘g‘ri payvandlab, pirovardida yaxlit uyg‘unlikka erishuvi ko‘zda tutilgan.

Kuy va so‘zni shu tariqa o‘zaro uyg‘un etish taomili ulug‘ ajdodlardan bizga ma‘naviy meros qolgan maqomlar (Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari va b.)da ham namoyon bo‘ladiki, bunda maqom doyra usuliga she‘rning aruz vazni mutanosib kelishi muhimdir. Jumladan, zarbul qadim (“bum, bak” yoki “bak, bum”) usulida kelgan maqom aytim yo‘llariga asosan quyidagi aruz bahrlari uyg‘undir:

a) Muftasi musammani maxbuni maqtu‘i musabbag‘;

Mafoilun-foilotun-mafoilun-falon

*Ba noli bulbul agar bo manqati sirri yorist,  
Ki mo du oshiqi zoremu, kori mo zorist...* (Hofiz).

b) Muzorei musammani axrabi makfufi maqsur;

Mafuvlu-foilotu-mafoyilu-foilon

*Bag‘rimni tig‘i hajr ila yuz pora qildilar,  
To yor ko‘yidin meni ovora qildilar...* (Navoiy).

Talqin usuliga (“bum, bak, bum, ba-ka”) tayangan aytimlarga esa ko‘proq “Ramali musammani maxzuf” vazni muvofiq keladi:

Foilotun-foilotun-foilotun-foilun

*Ey mug‘anniy yor bazmida navo soz aylasang,  
Jon fidong o‘lsun, g‘amim sharhidin og‘oz aylasang...* (Navoiy).

*Ey soching zanjirining aqlu xirad devonasi,*

*Qissai “Layliyu Majnun” kamtarin afsonasi...* (Atoyi).

6/4 o‘lchovli Nasr aytim yo‘llariga “Hazaji musammani solim” bahri uyg‘un:

Mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun-mafoiylun

*Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand etmas,*

*Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas...* (Navoiy).

Maqomlar uchun tanlab olingan she‘rlarning asosiy salmog‘ini g‘azallar tashkil etib keladi. Bu bejiz emas, chunki g‘azal debochasida ilgari surilgan muayyan g‘oyaning baytma-bayt rivoji

hamda aytim yo'lidagi kuy mavzuining avji tomon bosqichma-bosqich yuksalishi orasida monandlik bor. Bu holat g'azal tarkibida kelgan har bir bayt (ikki she'riy misra) va nisbiy tugal kuy-ohanglarining o'zaro bog'lanishidan hosil bo'lgan aytim "xat"larining mantiqiy asosini ta'minlaydi. Shu tarzda baytlar soniga muvofiq shakllantirilgan barcha "xat"lar (ko'pincha 7–8ta) esa maqom yo'lining "daromad", "miyonxat", "dunasr", "avj" va "tushirim" kabi shakliy bo'linmalariga mos holda taqsimlanadi.

Daromad, odatda, quyi registrda joylashgan bosh parda (I-tovush) bilan boshlanib, unda birinchi xat "o'qiladi". Shundan so'ng o'rta pardalarda (dastlabki tayanch pardaga nisbatan kvarta yoki kvinta yuqorida) kelgan miyonxat mazmunida ikkinchi xat, dunasr (bir oktava yuqori)da esa uchinchi xat "o'qilib", so'ngra yuqori pardalardagi avj bo'linmasiga ulanish sodir bo'ladi. Bu jarayonda bir yoki bir necha yangi kuy tuzilmalarining qo'llinishi (namud)<sup>1</sup> bilan bog'liq holda keyingi xatlar (4-6) ham "jonlanadi". So'nggi xat ifodalangan tushirimda esa aytim yo'li dastlabki tayanch (bosh) pardaga qaytib yakun topadi.

Qo'shimcha izoh sifatida aytish kerakki, goho aytimlarda qo'llangan g'azallarning ayrim baytlari qisqartirilsa, goho ayrim baytlarning "xat" sifatida takroran "o'qilishi" kuzatiladi. Shuningdek, aytimlarda she'riy misralardan tashqari yana unli harflar ("o", "a") va undovli-undalmalar ("yorey", "voyey", "jonimey" va h.k.)da kelgan hissiy ta'sirchan ohang zamzamalari ham keng qo'llaniladi.

Yana ta'kidlash kerakki, maqom aytim yo'llarida bir "qolipga tushgan" she'rlar bo'lmagan, balki she'riy matnlar vaziyat taqozosi bilan (kontaminatsiya tajribasi asosida) almashtirilib turilgan [Akbarov, Kon 1955, VIII]. Zero, saroy madaniy udumiga ko'ra, musiqachilar aruz vaznidagi ko'plab forsiy va turkiy g'azallarni yod bilishlari hamda o'rni kelganda u yoki bu g'azalni maqom yo'llariga bog'lagan holda o'z san'atlarini namoyish eta olishlari lozim edi.

O'ziga xos bu ijodiy an'ananing yuzaga kelishida maqom bosh g'oyasining "hissiy-emotsional ifodaviyligi jihatidan verbal (og'zaki) tildan bir pog'ona yuqori turuvchi" musiqa [Nazarov 1997] ohanglarida teran in'ikos etishi, demakki, ularga (kuy-ohanglariga) har gal turli she'r matnlari bog'lansa-da, asos-mohiyat tubdan o'zgarib qolmasligi ham muhim omil bo'lgan.

Mazkur an'ana bizning davrga qadar o'z kuchini saqlab kelmoqda. Bu haqda atoqli maqomshunos olim Is'hoq Rajabov shunday

---

<sup>1</sup>**Namud** - tojikcha so'z bo'lib, muayyan kuy yoki ashulaning ma'lum parchasini boshqa ashula yo'llari tarkibidagi ko'rinishi demakdir [Rajabov 2008, 182].

ma'lumotni keltiradi: "Keksa xalq hofizi Shorahim Shoumarovning aytishicha, ba'zi hofizlar ma'lum bir ashula uchun bir nechadan she'r tanlab olar va o'rniga qarab: tinglovchilar saviyasi, ta'biga muvofiq aytar edilar. She'rning qaysi tilda bo'lishida ham auditoriya hisobga olingan: o'rniga qarab tojikcha va o'zbekcha g'azallar solib o'qila bergan" [Rajabov 1963, 183].

Tabiiyki, muayyan kuy-ohanglariga turli she'rlarni bog'lab kuylash jarayonida musiqachining ijodiy-ijrochilik salohiyati barobarida quvvayi hofizasi ham katta ahamiyat kasb etadi. Salobatli maqom aytim yo'llarining ham kuy, ham nazm matnlarini yod bilgan holda yana bu namunalarni mumtoz talablar darajasidagi uyg'un ijro ila tinglovchi qalbiga yetkazishni uddalay olgan san'atkor "hofiz" (maqom hofizi) yuksak unvoniga sazovor bo'lgan. Hofizlik fazilati bastakorlik iste'dodi bilan qo'shuvg'unlikda kelgan san'atkor esa azaldan el ardog'i va olqishidadir.

Bunga yaqin o'tmishda faoliyat ko'rsatgan hofiz-bastakorlardan samarqandlik Hoji Abdulaziz Rasulov, xo'jandlik Sodirxon Bobosharifov, toshkentlik Mulla To'ychi Toshmuhammedov singari milliy musiqamiz darg'alarining ijodiy-ijrochilik salohiyati yorqin misol bo'la oladi. Alalxusus, zullisonayn hofiz Hoji Abdulaziz Rasulov yoshligida xotira xazinasiga naqshlagan Shashmaqom hamda fors-tojik va turkiy-o'zbek tillarida bitilgan otashin ishq mazmunli nazm boyliklarini bastakorlik ijodida o'rinli va unumli qo'llagan edi [Ibrohimov 2021, 208-213].

Shu jumladan, Masiho muxammasi ("Ba so'yi maykada rindona meguzashtam do'sh"), Ogahiyning Navoiy g'azaliga muxammasi ("Yana ne ko'z sitamidin hazinu giryonman") hamda Komiliy ("Yuzing firoqidin ey, rashki mehr raxshonim") va Zebunniso ("Biyoki zulfi kaju chashmi surmaso injost") g'azallarining botiniy ma'nolarini teran anglagan hofiz ularning har birini qadimiy "Ushshoq" maqom yo'liga bastakorlik nazirasi o'laroq vobasta etishga muvaffaq bo'lgan.

Musiqa asosi umumiy, lekin badiiy qiymati alohida yuksak bu namunalarning kuylari tarhida ham juz'iy farqlar bor. Jumladan, Masiho muxammasiga payvasta etilgan "Ushshoq"da kuy tarhi she'r (muxammas) shakliga monand holda kengroq ko'rinishda keladi. Bunda har gal beshinchi misraga muvofiq takrorlanuvchi ohanglar asosida aytim tuzilmalarining ham hajmi ortib, jami 9 xatni tashkil etgan [O'zbek xalq muzikasi 1957, 23-30]. Akademik Yunus Rajabiy tomonidan "Navoiy g'azaliga Ogahiy muxammasi" bilan notaga oliingan "Samarqand Ushshog'i"da ham shu kabi holat kuzatiladi [Шашмақом 1968, 153-162].

Zebunniso g'azali asosidagi "Samarqand Ushshog'i"ning

umumiy tarhi esa she'rdan kelgan yetti baytdan beshtasi qo'llanishi hamda birinchi baytning takroriy "o'qilishi" evaziga 6 xatdan iborat ixcham tus olgan [Rajabiy 1978, 38-41]. Ammo bunday qisqartmalar musiqa negizidagi yuksak maqsad sari muttasil intilgan g'oyaning zavqli avj holatlari yuzaga kelishiga mone'lik qilmaydi. Zotan, ruhiy yuksalish g'oyasi Zebunniso g'azalida ham mavjudki, bunda maftunkor bir nuqta (qaro ko'z nigohi)dan yuzaga kelgan oshiqning ruhiy qo'zg'alishi Mutloq Husn sohibining go'zal jilvalaridan butkul sarmast holga keladi.

Muxtasar aytganda, Hoji Abdulaziz Rasulovning ijodiy topqirligi bilan "Samarqand Ushshog'i"da qayta "jonlangan" qadimiy kuy Zebunniso Begimning qalb harorati bilan yo'g'rilgan "injust" ("bu yerdadir") radifli g'azaliga hamohang tarzda ajib go'zallikni kashf etgan. Bu go'zallikni tinglovchilar ommasiga yetkazish borasida Hoji buvaning benazir ijrosi barcha hofizlar uchun yuksak namunadir.

### **Xorazm va Farg'ona-Toshkent mumtoz aytimlari**

Xorazm vohasida nazm va navo mushtarakligiga asoslangan suvora ijodkorlari va ijrochilarining didalishma (yoki diydalashma) deb yuritiladigan o'ziga xos ijodiy o'zishuvlarini o'tkazish an'ana tusini olgan [Yusupov 1960]. Bunda ishtirokchi hofizlardan Navoiy, Mashrab, Nodira, Ogahiy, Munis, Avaz O'tar, Bedil kabi mumtoz shoirlarning ko'plab she'rlarini yod bilish va, muhimi, ularni hozirjavoblik bilan kuyga bog'lay olish mahorati talab etiladi. Chunki bu ijodiy o'zishuv ishtirokchilari navbati bilan dastlab (birinchi ishtirokchi tomonidan) ijro etilgan suvora kuyiga mutloq yangi nazm bog'lab kuylashlari shartli tarzda belgilab qo'yilgan. Bu ijodiy vazifani yuqori mahorat bilan bajargan hofiz-san'atkor didalishma musobaqasida g'oliblikni qo'lga kiritadi.

Suvoralarning mukammal namunalari Xorazm maqomlari tarkibidan o'rin olgan. Shuningdek, Navo maqomi asosida yaratilgan Feruz I-II, Savti Feruz nomli mumtoz ashulalar ham hofizlik san'atida keng qo'llaniladi. Shulardan Feruz I Xiva xoni – iste'dodli hofiz-bastakor va shoir Muhammad Rahimxon Soniyning g'azali ("Bazmimga keldi ul pari...")ga bog'langan, keyinchalik esa xonning amri bilan Ogahiyning quyida birinchi bayti keltirilgan g'azali asosida "o'qila" boshlagan [O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 106]:

*Mushkin qoshingning hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun nas keltirur nun eltibon sod ustina.*

Hojixon Boltayev, Nurmuhammad Boltayev, Madrahim



Yoqubov (Sheroziy), Komiljon Otaniyozov, Otajon Xudoyszukurov, Ro'zmat Jumaniyozov – Xorazm mumtoz aytilmalarining el sevgan atoqli ijrochilaridir.

Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Bobur, Zebunniso, Mashrab, Nodira, Uvaysiy, Huvaydo, Muqimiy, Furqat, Miskin, Haziniy, Habibiy kabi mumtoz shoirlarning aruz vaznida bitilgan diniy-falsafiy, ishqiy-muhabbat, pand-nasihath mavzularidagi g'azal namunalari Toshkent va Farg'ona vodiysida mashhur maqom yo'llari, shuningdek, ashula va katta ashula janrlarida keng qo'llanib kelinadi. Jumladan, hofizbastakor Mulla To'ychi Toshmuhammedov tomonidan Hazrat Navoiyning:

*Qaro ko'zum kelu mardumlig' emdi fan qilg'il,  
Ko'zum qarosida mardum kibi vatan qilg'il...*

kabi ta'rifga so'z ojiz misralari bilan boshlanuvchi g'azaliga ijodiy bog'langan hamda yuksak mahorat ila ijro etilgan Ushshoq yo'li xalqimiz ma'naviy go'zalligining sadolardagi o'ziga xos timsoliga aylangan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Boltaboy hofiz, Hamroqulqori, Mamadbobo Sattorov, Akbarqori Haydarov, Erkaqori Karimov, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov kabi hofizlar katta ashula ijrochiligida ham mahorat qozongan edilar. Bu san'atkorlar ijrosidagi "Ko'p erdi", "Bir kelsun", "Ey dilbari jononim", "Adashganman", "Do'stlar", "Yovvoyi Chorgoh" singari katta ashulalar keng tinglovchilar ommasida bugungi kunga qadar ma'lum va mashhurdir.

Shuningdek, el sevgan san'atkorlar – Doni Zokirovning "Ey sabo" (Navoiy g'azali), Orifxon Hotamovning "Xoh inon, xoh inonma" (Lutfiy she'ri), "Qoshi yosinmu deyin" (Navoiy g'azali), Rasulqori Mamadaliev honish qilgan "Na qildim" (Huvaydo so'zi, M.Bahodirov kuyi), Murodjon Ahmedov talqinidagi "O'rtar" (Mashrab she'ri), Tavakkal Qodirov ijodi va ijrochiligida baralla yangragan "O'xshaydiku" (Nihoniy), "Fasli navbahor o'ldi" (Furqat), Fattohxon Mamadaliev hofiz-ijodkorligidagi "Fosh o'lsun" (Navoiy), "Dardi dilim" (Ogahiy), "Ol xabar" (Muqimiy) va shu sifat yana ko'plab ashulalar milliy musiqiy xazinamizdan munosib o'rin olgan.

## **Xulosa**

Mumtoz she'riyatni ashula, katta ashula, suvora va maqom kuylariga bog'lab, xalqimiz orasida targ'ibu tashviq qilinishida bastakorlik ijodi hamda hofizlik san'atining alohida muhim va

mas'uliyatli o'rni bor. Bu borada yangi davr sozanda-bastakorlari – Abduhoshim Ismoilov, O'lmas Rasulov, Ahmadjon Dadayev, hofizlari – Hasan Rajabiy, Mahmudjon Tojiboyev, Mahmudjon Yo'ldoshev, Beknazar Do'stmurodov, Rahmatjon Qurbonov, Munojot Yo'lchiyeva, Maryam Sattorova, Nasiba Sattorova, Mashrab Ermatov, Erkin Ro'zimatov singari el ardog'idagi san'atkorlar – ustozlar yo'lining davomchilaridir.

Shu bilan birga zamondosh shoirlarning ayrim ijod namunalari muvofiq navolar uyg'unligida xalqimizga ma'lum bo'layotgani ayon. To'g'ri, bu jarayon avvalgi davrlarga nisbatan anchayin sust kechmoqda. Holbuki, bugungi kunda Xurshid Davron, Usmon Azim, Mahmud Toir, Ikrom Otamurodov, Eshqobil Shukur, Minhojiddin Hojimatov, Sirojiddin Sayid, Iqbol Mirzo kabi ko'plab iste'dodli shoirlarimizning qalb qo'ri-yu, zamona nafasi bilan yo'g'rilgan serma'no she'rlari (garchand ayrim namunalariga qo'shiqlar bastalangan bo'lsa-da) hanuz o'zining bastakori, kompozitori va ijrochilarini kutmoqda.

Zotan, har bir davrning ilg'or she'riyati unga munosib bastalangan diltortar ohanglari va go'zal ijrosi bilan xo'b ta'sirli va samaralidir. Bunga yana bir bor iqrar bo'lish uchun esa quyidagilarni eslab o'tish kifoya. Yaqin o'tmishimiz bo'lgan mustabid tuzum davrida ardoqli xalq shoiri Abdulla Oripovning o'zbekona ifor bilan yo'g'rilgan "Birinchi muhabbatim" dil izhori Sherhali Jo'rayevning o'zgacha ovoz tarovati ila qalbimizga bir umr muhrlanib qoldi, yoki, aytaylik, yana bir sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning otashin "O'zbekim" qasidasi Sherhali Jo'raevning jur'atli ijrosida yuragimizga g'ulg'ula solib, mudroq bosgan milliy g'ururimizni uyg'otish va o'zligimizni anglash yo'lida bir "turtki" bo'lgan edi, desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Yana shunisi ham rostki, shoira Saida Zunnunovanning dil samimiyligi bilan yo'g'rilgan she'riga bastakor Faxriddin Sodiqov musiqasi uyg'un kelgan "Barno yigit" qo'shig'ida iffatli o'zbek qizining go'zal ma'naviy olami Habiba Oxunovanning maftunkor ovoz latofati ila o'zining badiiy in'ikosini topgan bo'lsa, Salohiyning "Ey o'g'il" nazmiy nasihati Orifxon Hotamovning bastakorlik va hofizlik iste'dodi yog'dusida o'g'lonlar qalbiga malhamli o'git bo'lgan edi. Bunday misollarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Saodatli Mustaqillik davriga kelib milliy tuyg'ulariimizning ifodasi o'laroq Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron, Usmon Azim, Iqbol Mirzo va boshqa iste'dodli shoirlarimizning Vatan, el-yurt, ona tabiat, muhabbat, do'stlik,



insonparvarlik mavzularidagi qator she'rlarining xilma-xil tarannumiga guvoh bo'ldik. Bu borada erishilgan e'tiborli ijobiy natijalar va istiqbolli ijodiy izlanishlar bilan bir qatorda turli bahslarga sabab bo'layotgan yengil-yelpi talqinlar ham yuzaga kelayotgani sir emas.

Asriy milliy qadriyatlarni e'zozlash, ona yurtga sadoqat, xalqimizga azaldan xos bag'rikenglik, samimiylik, insonparvarlik kabi olijanob fazilatlarni ulug'lash va ularni yosh avlod qalbiga singdirish hamon ustuvor ekan, demak, qo'shiqchilik maydoniga "qadam" qo'yayotgan har bir ijodkor (u xoh shoir, xoh bastakor, xoh ijrochi bo'lsin) buni chuqur his qilishi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini teran anglashi – davr talabidir. Biz bu borada shoir, musiqa ijodkori va ijrochilarini yanada samarali hamkorlik qilishga da'vat qilib qolamiz.

### Adabiyotlar

- Акбаров, И., Кон, Ю. 1955. *Кириш мақоласи. Ўзбек халқ музыкаси*. I жилд. Юнус Ражабий нотага олган. И.Акбаров таҳрири остида. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Бадиий адабиёт нашриёти.
- Бобохонов, Ш. З., Мансур, А. 1993. *Нақшбандийя тариқатига оид қўлғамалар фихристи*. Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Бухорий-Калободий, Абу Бакр. 1993. *Китобут-таъарруф ли-мазҳабит- тасаввуф. Қавлиҳум фис-самаъ ва одобиҳи*. IV жилд. Форсчадан А. Ф. Назаров таржимаси (қўлғам). Тошкент: ЎзР ФА Санъатшунослик институти кутубхонаси, инв. № 922.
- Иброҳимов, О.А. 2021. Устод санъаткор Ҳожи Абдулазиз Расулов ижодига доир. Илмий мақолалар тўплами: *Ҳожи Абдулазиз ва анъанаҳои бадеи шеърӣю муסיқӣю мардумони Осиёи Маркази (Ҳожи Абдулазиз ва Марказий Осиё халқларининг шеърӣю, мусиқӣю бадиий анъаналари)*. Тузувчи ва масъул муҳаррир профессор Асқарали Ражабов. Душанбе: Дониш.
- Назаров, А. 1997. Сохта муаммо кимга зарур ёки илмийликдан йироқ баъзи "илмий" кашфиётлар хусусида. *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, 13 июнь.
